

**TIBBIYOTDA DOLZARB MUAMMOLARDAN BIRI – ALLERGIYA.
UNING KELIB CHIQISHI, DIAGNOSTIKASI, DAVOLASH VA
PROFILAKTIKASI
ONA SUTINING ALLERGIK KASALLIKLARNI KAMAYTIRUVCHI
OMILI**

Avezova Gulshod Sattarovna

O‘zbekiston Davlat Jismoniy tarbiya va sport Universiteti Anatomiya kafedrası
assistenti.

Mamasoliyeva Shahnoza Farhod qizi

O‘zbekiston Davlat Jismoniy tarbiya va sport Universiteti Tibbiyot fakulteti
Davolash ishi yo‘nalishi 2 – bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Turli xil allergenlarning organizmga kirishi natijasida allergik kasalliklar kelib chiqib, hozirda allergenlarga ega mahsulotlar ko‘paymoqda. Organizm immun sistemasi orqali ularga qarshi kurashadi. Turli allergik sinamalar yordamida insonda mavjud allergiyalar o‘rganilib, yetarlicha profilaktika choralarini ko‘rish lozim. Aks holda oddiy allergen ham og‘ir asoratlargacha olib boradi. Davolash tadbirlarida xalq tabobati, farmatsevtika vositalaridan foydalaniladi. Bundan tashqari ona suti ham o‘ziga xos profilaktik va davolovchi ta’sirga ega.

***Kalit so‘zlar:** Allergenlar, allergik reaksiyalar, ona suti, allergik sinamalar, dieta, allergiyaga qarshi o‘simliklar va dorilar.*

Asosiy qism. Organizmga tushadigan antigenga nisbatan rivojlanadigan sensibilizatsiya va ikkilamchi immun javob – immunitetning muhim mexanizmidir.

Organizmga qayta allergen kiritilganda yuzaga keladigan patologik reaksiya allergiya deyiladi. Bu termini tibbiyotga K.Pirke kiritgan. Yer sharining 25-30% aholisi allergik kasalliklar bilan kasallanadi. D.Ado va A.Polker allergenlarni kelib chiqishiga ko'ra infeksiyon va noinfeksiyon guruhlarga ajratadi. Infeksiyon guruhga barcha mikroorganizmlar kiradi. Noinfeksiyon allergenlar : o'simliklar gulining changi, oziq – ovqat, maishiy, epiallergen, dori, sanoat allergenlari.

O'simliklar gulining 35 mkm dan kichik chang zarralaridan mavsumiy allergiya kelib chiqadi. Bunday o'simliklarga akatsiya, qayin, qayrag'och, eman, findik, terak, olxa, chinor kabilar kiradi. Epidermal allergenlar – yovvoyi va uy hayvonlari yungi va qazg'og'ida uchraydi. Oziq – ovqat allergenlari har xil mahsulotlar, masalan, baliq, asal, yong'oq, sut, tuxum, mosh, no'xat, shokolad, sitrus mevalar va h.k larda uchraydi. Kimyoviy allergenlarga kukunlar, pastalar, ursol (soch bo'yog'I tarkibidagi modda), benzin, benzol kabilar ega. Dori vositalariga nisbatan allergiyalar 0,9%li fiziologik eritma va glukoadan boshqa deyarli hamma dorilar tufayli kelib chiqishi mumkin. O'tgan asrning 40-yillariga qadar dori allergenlari 0,5 – 1,5 %, bugungi kunda 15 - 30% bemorlarda uchraydi. Bu allergenlar reytingi bo'yicha antibiotiklar yetakchilik qiladi. 2-o'rinda steroid bo'lmagan yallig'lanishga qarshi dorilarni keltirish mumkin. Qolaversa, mahalliy anestetiklar, tarkibida yod moddasi mavjud dorilar ham keng tarqalgan allergenlardir. Bulardan tashqari sigir sutining allergen tarkibini alohida ta'kidlash lozim. Unda allergiyaga sabab bo'luvchi f2, Bos d4, Bos d5, Bos d6, Bos d8, Bos d9, Bos d10, Bos d11, Bos d12 allergenlari mavjud. Ular ko'proq 2 – 3% emizikli bolalarda uchraydi, 5 yoshda 80 % ida bu holat yo'qoladi, 6 yoshda 100 ta boladan 1 nafarida allergiya kuzatilishi mumkin.

Allergenlar tufayli allergik reaksiyalar kelib chiqadi. Ularni P.Jell va R.Kumbs lar tasniflashgan. Unga ko'ra anafilaktik, sitotoksik, immun birikmalar reaksiyasi va hujayraviy reaksiyalar farq qilinadi. Bularning barchasi organizmning o'ziga xos immun javoblari natijasida kelib chiqadi. Sustkor giperta'sirchanlik reaksiyalariga: eruvchan oqsillarga nisbatan, tuberkulin yoki infeksiyaga qarshi, teri allergiyasi, autoallergik va to'qima, a'zolari ko'chirib o'tkazishda rivojlanadigan allergik

reaksiyalar kiradi. Allergik reaksiyalar oqibatiga ko'ra, yengil yoki o'rtacha va og'ir allergik reaksiyalarga bo'linadi. Hayot uchun eng xavfli anafilaktik reaksiya bo'lib, shoshilinch tibbiy yordam talab qiladi. Hasharotlar chaqishidan ham kuchli allergik reaksiyalar kelib chiqadi.

Allergik reaksiyalarning laboratoriya diagnostikasi ularning mexanizmidan kelib chiqib olib boriladi. I tur reaksiyalarda IgE lar, II tur reaksiyalarda qon zardobida eritrotsit, leykotsit, trombositlarga qarshi antitelolar, III tur reaksiyalarda qonda aylanib yuruvchi immun birikmalar, IV turda esa teri-allergik sinamalar qo'yiladi.

Allergik kasalliklarni davolashda dieta, dorivor o'simliklar, farmatsevtik dorilar qo'llaniladi. Dorilar bilan davolashda: gistaminga qarshi dorilar (dimedrol, suprastin, diazolin, tavegil), yallig'lanishga qarshi dorilar (ibuprofen, butadion), immunomodulyatorlar, bazofillarni barqaror qiluvchi dorilar (izoprenalin, geparin, salitsilat, kortikosteroidlar) qo'llaniladi. Oziq-ovqat allergiyalarida dieta qilish muhim ahamiyatga ega. Iloji boricha allergenli oziq-ovqatlardan saqlanish lozim. Allergiyaga qarshi o'simliklar ro'yxatiga moychechak, milfoil, yalpiz, qichitqi o't, piongul, selderey kabilar kiradi. Ulardan damlamalar va sharbatlar tayyorlanib foydalaniladi.

Ona suti chaqaloqlar uchun allergiya xavfini kamaytiruvchi ham profilaktik, ham davolovchi ta'sirga ega. Ona suti bilan boqilmagan bolalarning 25%ida allergik kasalliklar uchraydi. Bu esa ular organizmida immunitetning pasayishi, infeksiyalarga tez-tez chalinishga olib keladi. JSST ma'lumoti bo'yicha, ko'krak suti bilan ko'krak yoshidagi bolalarni ovqatlantirilganda dunyo 1mlndan ortiq bolalar o'limidan holi bo'lar edi.

Allergiya tug'ma bo'lmaydi, allergiyaga moyillik tug'ma bo'ladi va genlar orqali nasldan naslga o'tadi. Bola tug'ilganidan keyin allergiyaga sharoit va muhit bo'lsa u o'zini namoyon qiladi. Aks holda namoyon bo'lmasligi mumkin.

Xulosa. Butun dunyoda oxirgi 10 yil ichida allergik kasalliklar keng tarqalib bormoqda. Bunga yetarlicha sabablar topiladi, masalan, ekologiyaning buzilishi, ovqatlanish tartibi o'zgarganligi, ko'p miqdorda dorilar iste'mol qilish. Toshkent shahri va viloyatlardagi allergenlarning farqi mavjud. Toshkentda kiparez va alternative

allergiya ko‘p uchrasa, vodiylar viloyatlarida uy changlariga allergiya ko‘proq. Bu hududlar iqlimi, turmush tarzi va muhiti kabi xususiyatlariga bog‘liq. Allergik kasalliklar bilan kurashish tibbiyotning dolzarb muammolariga aylanib ulgurdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. *I. Muhamedov., mikrobiologiya immunologiya virusologiya. Toshkent, Yangi asr avlodi. 2006*

2. *O.T. Alyaviya., fiziologiya. Toshkent, 2019*

3. *<https://sof.uz> tibbiyot*

4. *<https://zamin.uz> salomatlik*